

**BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI****Abduraimova Zebunniso Mirzahmad qizi****Jo‘raqulova Farangiz Mansur qizi****G‘aybullayeva Gulsevar Orzuqul qizi****To‘xtayeva Ozoda Alisher qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti

Maxsus pedagogika: Logopediya yo‘nalishi 511-23 - guruh talabasi

**Annotasiya :** Ushbu maqolada bolalar nutqining rivojlanish jarayonida n asosiy xususiyatlarni o‘rganishga bag’ishlangan. Bolalar nutqining shakllakuzatiladigan asosiy xususiyatlarni o‘rganishga bag’ishlangan. Bolalar nutqining shakllanishi turli xil omillarni o‘z ichiga oladi. Bu omillar quyidagilardan iborat: biologik, ijtimoiy va psixologik omillarga bog’liq bo’lib, bu jarayon ko‘p bosqichli va individual xarakterga ega. Bugungi kunda erta bolalik davrida nutqni rivojlantiruvchi o‘yinlar va mashg’ulotlar qo’llashning samaradorligi ko’rsatib o’tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoy stimullar , Broka markazi, Vernike markazi , realibilitatsiya , Korreksiya , Adaptatsiya, Kompensatsiya

**Annotation:** This article is dedicated to studying the key characteristics of children's speech development. It is dedicated to studying the main features of children's speech development. The formation of children's speech involves a variety of factors. These factors consist of the following: depend on biological, social and psychological factors, and this process has a multifaceted and individual character. To date, the effectiveness of using speech-developing games and activities in early childhood has been demonstrated.

**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению основных особенностей процесса развития речи у детей. В ней рассматриваются ключевые характеристики формирования детской речи. Этот процесс включает в себя различные факторы, которые заключаются в следующем: зависимость от биологических, социальных и психологических аспектов, а также многограничный и индивидуальный характер развития. В настоящее время доказана эффективность применения игр и занятий, способствующих развитию речи в раннем детском возрасте. На сегодняшний день показана эффективность использования игр и занятий, развивающих речь в раннем детском возрасте.

Barchamizga ma’lumki, bolalarning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to’g’ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga , oilada va jamiyatda to’g’ri nutq muhiti va ta’lim-tarbiyasiga bog’liq jarayon hisoblanadi. Birinchi navbatda bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari oiladan boshlanadi. Bolalarning nutqi kattalar nutqiga taqlid asosida shakllanadi. Bola tug’ilgan daqiqasidan boshlab ovoz chiqaradi. Bolalarning bu chiqargan ovozi qichqiriq deyiladi. Bu qichqiriq bolaning kelgusida nutqining rivojlanishiga asos bo’ladi. Bu xususida ko’pgina olimlar tomonidan kuzatish va tadqiqotlar ishlari olib borilgan. Bu jarayon ustida ish olib borgan olimlar: R.Ye.Levina, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.R.Luriya, V.A.Artyomov, N.I.Jinkin, P.K.Anoxin va boshqalar.

Olimlar bola nutqining shakllanish davrlarini turlicha ko'rsatadilar, ularni har xil nomlaydilar va har birining yosh chegaralarini turlicha ifodalaydilar.

G.L.Rozengrad Pupko bolada nutq rivojlanishini 2 davrga ajratadi:

- 1) tayyorlov davri (2 yoshgacha );
- 2) nutqning mustaqil shakllanish davri.

A.N.Leontev bola nutqining shakllanishini 4 davrga bo'lib ko'rsatadi:

- 1) tayyorgarlik davri – 1 yoshgacha shakllanadi;
- 2) bog'chagacha bo'lgan davr – 3 yoshgacha shakllanadi;
- 3) maktabgacha bo'lgan davr – 7 yoshgacha shakllanadi;
- 4) maktab davrini o'z ichiga oladi.

Har bir bolaning komil inson, har tomonlama mukammal shaxs bo'lib yetishishida bu bolaning ravon gapira olishi juda muhim omil hisoblanadi. Xususan, bola nutqining shakllanishi bog'cha davriga tog'ri keladi. Shuning uchun ham bola nutqining ravon bo'lishi, chiroli va mukammal muloqotga kirisha olishi uchun bog'chadagi tarbiyachi pedagoglarning va oilada ota – onaning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari bolalar nutqining rivojlanishida biologik omillarning o'rni ham muhim hisoblanadi, chunki til o'rganish jarayoni asosan miya va nerv tizimining rivojlanishiga bog'liqdir. Bola nutqini rivojlantirish uchun miyaning turli qismlari, ayniqsa, Broka markazi ( miyaning chap peshona qismi ), Vernike markazi ( miyaning chap chakka qismi ), nutqning ko'rvu markazi ( miyaning ensa qismi ) muhim rol o'naydi. Miyaning rivojlanishi va nerv tizimining to'g'ri ishlashi bolada nutqning shakllanishiga yordam beradi.

Nutqning rivojlanishidagi genetik omillarda til o'rganish va nutq ishlab chiqarish qobiliyati ba'zi darajada irlsiy ( genetik ) xususiyatlarga bog'liqdir. Agar ota – onada nutqning shakllanish jarayoni normada kuzatilgan bo'lsa, bolada ham ijobjiy natija kuzatiladi. Shuningdek, genetik omillarni atrof – muhit , ijtimoiy aloqalar va individual tajribalar bilan birlgilikda hisobga olish zarur .

Bola nutqining rivojlanishida til va nutq o'rganish jarayoni asosan ijtimoiy o'zaro aloqalar va tajribalarga asoslanadi. Xususan ota -onalar , boshqa yaqin qarindoshlar va bolalar bilan muloqatda bo'lish , nutq rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bola turli vaziyatlarda odamlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur .Chunki bu jarayon jamoaviy o'yinlar , oilaviy tadbirlar va ijtimoiy faoliyatlar bolada nutqiy qobiliyatni yaxshi rag'batlantiradi. Agar bolalar o'z nutqlari uchun ijtimoiy stimullar yoki rag'batlantirish olsalar ( masalan , o'zlarini to'g'ri ifodalash orqali olgan ijobjiy etiroflar yoki rag'bat ).

Ko'rinish turibdiki, nutqiy rivojlanish jarayonida bola psixikasi ham muhum ahamiyat kasb etadi . Psixologiyasidagi buzulishlar bola nutqining nonarmal shakllanishiga olib keladi . Bu holatda bolada Mutizim yani psixologik yoki emotsiyal sabablarga ko'ra bolada ma'lum bir ijtimoiy vaziyatlarda gapira olmasligi bilan tavsiflanadi . Nutqning rivojlanish jarayoni erta bolalik davrida kechikishi kuzatilsa , bola mutaxasis (Logoped – difektolog) tomonidan realibilitatsion , korreksion , kompensatsion , adaptatsion ishlar olib boriladi . Birinchi navbatda bola nutqining kechikish sabablari aniqlanadi va shunga mos tarzda o'yinlar va mashg'ulotlar

amalga oshiriladi. Logopedik mashg'ulotlar haftasiga 3 marta muntazam ravishda o'tkaziladi . Ota -onalar bilan birgalikda uy sharoitida ham mashg'ulotlar o'tkazilishi lozim (Logoped topshiriqlari asosida ).

Mashg'ulotlarni har kuni (Kuniga 2-3 marta) 5 – 15 minutdan o'tkazish lozim .

Bolada nutqini rivojlantiruvchi logopedik o'yinlar bolalar bilan ishlashda juda samarali vositadir . Bu o'yinlar va mashg'ulotlar nutqiy apparatlarni mustahkamlash , lug'at boyligini oshirish hamda nutqiy jarayonda talaffuzni yaxshilashda yordam beradi .Quyida bir nechta foydali o'yinlar keltirilgan:

1.”Taqlidiy o'yin “faoliyati :bunda bolaga hayvonlar rasmi ko'rsatiladi va ulardan “bu hayvon qanday ovoz chiqaradi? “ kabi savol beriladi. Misol uchun it - “ vov – vov “ , mushuk –“ miyov “ va ilon –“ kiss “ .

2.” Tovushni top” o'yini : O'yinchi ( bola ) turli tovushlarni yoki harflarni aytadi. Masalan :” S ” , “R ” , “P ” kabi tovushlarni va bola bu tovushlarga o'xshagan so'zlarni topishi kerak . Misol uchun , “ s ” tovushi uchun bola “ suv ” , “ sariq ” kabi so'zlarni aytishi kerak .

3. “Kim nima qilmoqda ? “ o'yini : O'yin davomida bola qaysi kishining nima qilayotganini aniqlashi kerak . Masalan , “ ona pishiriq pishiradi , bola kitob o'qimoqda , qiz gulga suv quymoqda “ .

4. “Rasmli hikoya “ o'yini : Bu o'yinning asosiy maqsadi bolada bog'lovchi nutqni rivojlantirish . Bolalar rasmlardan birini tanlaydi va rasm asosida kichik hikoya tuzadi . Masalan , bola bog'da aylanmoqda. U gul terayabdi .”

Ushbu o'yinlar faoliyatidan foydalanish , bolalar bilan muntazam o'ynash nutq jarayonining samarali rivojlanishiga katta xissa qo'shami . O'yinlar bolalarning qiziqishini yanada oshiradi va bu kabi jarayonni maroqli o'tishiga o'z xissasini qo'shami .

Xulosa qilib aytganda , bolalar nutqining yaxshi rivojlanishida turli xil omillarning tasiri hamda o'yin faoliyatları o'z tasirini ko'rsatadi.Bu kabi jarayonda ota – onalar tomonidan farzandlariga katta etibor qaratishi zarur . Nutqning rivojlanmay qolishi yoki noto'g'ri rivojlanishi kelajakda bola o'zini jamiyatdan chetga olish holatlari yuzaga keladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lif to'g'risidagi Nizom.
2. Asqarxo'jayeva M. Bog'chalarda o'zbek tilini o'rganish. Bolalar bog'chalari tarbiyachilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent: 2010.
3. Z.Irohimova, M.G'aybullayeva. bolalar bog'chalari uchun dasturlar. Tevarak – atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, badiiy adabiyot. Toshkent: 2015.
4. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. Toshkent: 2018.
5. Buyuk ajdodlarimiz ta'limotida sog 'lom avlodni tarbiyalash. rd uchkunovna - pedagog, 2022 - bestpublication.org pedagog respublika ilmiy jurnali 2 – son / 2022 - yil / 15 - oktyabr